

ISSUES IN COMPILING AN EXPLANATORY DICTIONARY OF TERMS IN ALISHER NAVOI'S "MAHBUB UL-QULUB"**Abdurahmonova Nilufar Laziz qizi**

master, Prince's State Pedagogical Institute

Email: abdurahmonovanilufar33@gmail.com

Tel: +998 88 585 64 30

Abstract: This article analyzes the language and lexical composition of Alisher Navoi's masterpiece Mahbub ul-qulub from a lexicographical perspective. The study discusses the challenges that arise in the process of compiling an explanatory dictionary. In addition, it highlights the possibilities of creating a digital explanatory dictionary of Mahbub ul-qulub and the scientific significance of using computational linguistics and modern technologies for the automatic analysis of Navoi's language. The article emphasizes the importance of interpreting the vocabulary of Navoi's works to study the historical layers of the Uzbek language and to analyze the nation's spiritual heritage on a scientific basis.

Keywords: lexicography, explanatory dictionary, term, Sufi terminology, computational linguistics, historical vocabulary, semantics.

"MAHBUB UL-QULUB" ASARIDAGI TERMINLARNING IZOHLI LUG'ATINI**YARATISH MUAMMOLARI****Abdurahmonova Nilufar Laziz qizi**

magistr, Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Email: abdurahmonovanilufar33@gmail.com

Tel: +998 88 585 64 30

Shahrisabz, O'zbekiston

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiy ijodining yuksak namunasi — "Mahbub ul-qulub" asari tili va leksik tarkibi leksikografik nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Tadqiqotda izohli lug'at yaratish jarayonida yuzaga keladigan muammolar haqida so'z yuritilgan. Shuningdek, "Mahbub ul-qulub" asosida raqamli izohli lug'at tuzish imkoniyatlari, kompyuter lingvistikasi va zamonaviy texnologiyalar yordamida Navoiy tilini avtomatik tahlil qilishning ilmiy ahamiyati yoritilgan. Maqolada Navoiy asarlari leksikasini izohlash orqali o'zbek tili tarixiy qatlamlarini o'rganish va ma'naviy merosni ilmiy asosda tahlil etish zarurligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: leksikografiya, izohli lug'at, termin, tasavvuf terminlari, kompyuter lingvistika, tarixiy so'zlar, semantika.

Kirish. Alisher Navoiy ijodi o'zbek mumtoz adabiyotining eng yuksak bosqichi, milliy tafakkur va ma'naviyatning yuksak davrini ifodalaydi. Uning ijodiy merosi, xususan, "Mahbub ul-qulub" asari o'z davrining axloqiy, falsafiy, diniy hamda ijtimoiy masalalarini chuqur badiiy shaklda ifodalaydi. Ushbu asar tilini o'rganish, undagi leksik birliklarni izohlab, ularning ma'no qatlamlarini ochib berish bugungi kunda leksikografiya uchun dolzarb masaladir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Tilshunoslikda izohli lug'atlarga xalqning tarixiy tafakkuri, madaniyati va dunyoqarashini o'zida aks ettiruvchi manba sifatida qaraladi. Shu bois Navoiy asarlari asosida tuziladigan izohli lug'atlar nafaqat adabiy merosni o'rganish, balki o'zbek tili taraqqiyot bosqichlarini ilmiy tahlil etish uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. "Mahbub ul-qulub" asari leksikasida so'zlarning shakl va ma'nosi, ularning poetik, tasavvufiy hamda falsafiy ma'nolari chuqur tahlilni talab etadi.

"Terminologiya – bu bir tizim, eng avvalo, aniq bir terminologik sistemaga xizmat qiluvchi maxsus so'zlarning lisoniy tartiblanganligi, ya'ni terminlar yig'indisi hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, turli terminosistemalar "milliy tilning leksik sistemasida mavjud bo'lgan, aniq, to'liq va keng doirada ifodalanuvchi leksik sistema, ilmiy nazariyalar, qonunlar, tamoyillar, qoidalar shakllantiriladigan vositadir"¹.

Izohli lug'at – bunday lug'atda so'zning ma'nolari, qoi'llanish sohasi va darajasi, fonetik va grammatik xususiyati ko'rsatib beriladi². Izohli lug'at yaratish jarayonida N.Mahmudov, A.Mamajonov, R.Rasulov, Z.Abdurahmonova kabi tilshunoslarning leksikografiya nazariyasiga oid qarashlari muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

"Mahbub ul-qulub" asari Navoiy nasrining yuksak namunasi bo'lib, unda xalq tili, mumtoz adabiy til, arab va fors tillaridan kirib kelgan diniy, falsafiy terminlar uyg'unlashgan. Masalan, "ko'ngil" so'zi — asarda markaziy tushunchalardan biri hisoblanadi. Navoiy uchun ko'ngil — bu inson qalbi, Allohni his etuvchi markaz, ilohiy nur manbaidir. Shu bois bu so'zni lug'atga kiritishda uni "ruhiy markaz", "ma'naviy idrok manbai", "ilohiy yodning maskani" tarzida izohlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Xuddi shuningdek, "taqvo", "zuhd", "sabr", "tavba", "fano", "baqo", "haqiqat" singari terminlar tasavvuf ta'limotining asosiy bo'g'inlarini tashkil etadi. Ularning izohli lug'atini tuzishda diniy ma'no bilan bir qatorda, axloqiy, falsafiy, badiiy qirralarini ham yoritish kerak.

Asarda xalq tiliga mansub so'zlar, maqollar, hikmatli iboralar ham keng o'rin olgan. Ular xalq og'zaki ijodi va tasavvuf falsafasi orasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi. Bu birliklarni lug'at shaklida berish orqali termin ma'nosini izohlash bilan bir qatorda uning qanday birikmalar tarkibida uchraganligi, qaysi so'zlar bilan aloqaga kirishishi haqida ham foydalanuvchiga ma'lumot berish imkoni paydo bo'ladi. Ammo "Mahbub ul-qulub" asarining leksik qatlamini izohli shaklda tadqiq etishda bir qator ilmiy va amaliy muammolar mavjud ekanligini inkor etib bo'lmaydi. Masalan,

➤ Tarixiy so'zlarning ma'no o'zgarishi. Asardagi ayrim so'zlar hozirgi o'zbek tilida ishlatilmaydi yoki ma'nosi tubdan o'zgargan. Masalan, "arif", "solik", "murid", "shahid", "qurbat" kabi so'zlar

¹ Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent, «Fan», 2007. – B. 250.

² Normamatov S. Leksikografiya asoslari. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2020. – B. 17.

tasavvufiy termin sifatida qo'llangan, ammo zamonaviy til foydalanuvchisi uchun ularning asl ma'nosi begona.

➤ Ko'p ma'nolilik va kontekstual farqlar. Bitta so'z asarning turli boblarida turlicha ma'noda keladi. "Ishq" so'zi ba'zan ilohiy muhabbat, ba'zan esa insoniy sevgi ma'nosida ishlatiladi.

➤ Arabcha va forscha so'zlarning etimologiyasi. Ularning manbasini aniqlash, semantik o'zgarish jarayonini ko'rsatish uchun lingvistik izlanishlar talab qilinadi.

Lug'at tuzishda yuqoridagi muammolarning har biri maxsus metodik yondashuvni talab qiladi. Eng muhimi — izohli lug'at yaratishda so'zning asar kontekstidagi o'rnini aniqlash, ma'no nozikliklarini tahlil etishdir. Izohli lug'at yaratishda ba'zi muammolar bo'lishiga qaramasdan bugungi kunda raqamli texnologiyalar, kompyuter lingvistikasi va avtomatik tahlil dasturlari klassik asarlar tili bilan ishlashda katta imkoniyatlar yaratmoqda. "Mahbub ul-qulub" asarining elektron izohli lug'atini yaratish orqali:

1. har bir so'zning shakliy va ma'no tahlilini avtomatik tarzda ko'rsatish;
2. so'zlar o'rtasidagi semantik aloqalarni aniqlash;
3. arabcha va forscha atamalarining tarjima ekvivalentlarini keltirish mumkin.

Masalan, "ko'ngil", "ishq", "haqiqat", "fano", "baqo" kabi so'zlarning ma'nosini izohlaganda, dastur ularning qo'llanish chastotasini, kontekstini va sinonimik qatlamini avtomatik tarzda aniqlab beradi. Bu, o'z navbatida, Navoiy tilini raqamli tahlil qilishda yangi bosqichni boshlab beradi.

"Mahbub ul-qulub" asari tilining o'ziga xosligi, undagi leksik birliklarning serqatlamligi va tasavvufiy mohiyati bu asarni chuqur lingvistik tadqiqot obyekti sifatida o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Izohli lug'at yaratish orqali Navoiy asarlaridagi diniy, falsafiy, axloqiy va badiiy qatlamlar tizimlashtiriladi, o'zbek tili tarixidagi ko'plab leksik birliklarning asl mohiyati qayta tiklanadi. Bu borada leksikografik yondashuvni tasavvufiy, adabiy va tarixiy tahlil bilan uyg'unlashtirish eng samarali natijalarni beradi. Natijada yaratiladigan lug'at nafaqat ilmiy manba, balki Navoiy tilining go'zalligini va xalq tafakkurining chuqurligini yorituvchi ma'naviy durdona bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Islomov I, Bobojonov Sh. „O'zbek tilining so'zlar darajalanishi o'quv lug'ati. 2007-2009.
2. Normamatov S. Leksikografiya asoslari. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2020.
3. Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi.- Toshkent : O'zbekiston, 2002.
4. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. – Toshkent, Fan, 2007.
5. Sayfullayeva R, Mengliyev B, Boqiyeva, Qurbonova M, Yunusova Z, Abdullayeva M. Hozirgi o'zbek adabiy tili.- T; Fan va texnologiya, 2009.
6. Мадвалиев А. Луғат ва луғат турлари ҳақида. – Ўзбек миллий лексикографиясининг долзарб масалалари мавзуидаги илмий-назарий анжуман материаллари тўплами, ТошДЎТАУ. – Тошкент, 2017.
7. Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002.